

TELEVIDENIYADA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT: NIMANI TOMOSHA QILSANG, SHUNGA AYLANIB BORASAN

Xushnazarova Sevinch Norqo'chqor qizi

Jurnalistika fakulteti 10.00.09 - ixtisosligi tayanch (PhD) doktoranti

Sevinch.norkobilova@gmail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston televideniyesidagi ko'rsatuvlarda insonning kamolotida muhim o'rin tutuvchi ko'rsatuvlar haqida, bu ko'rsatuvlarning insonlar ongi, ruhiyatidagi vazifalari qay darajada ketayotgani ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Shu bilan birga, yoritilayotgan ma'naviy-ma'rifiy teledasturlarning ta'siri, mavzusi, jurnalist mahorati-yu, yondashuvigacha amaliy tahlil etilgan.

KALIT SO'ZLAR: *Ma'naviyat, ma'rifat, telekanal, televideniye, jurnalist, ko'rsatuv, prank, vayn*

АННОТАЦИЯ

В данной статье научно и практически исследованы передачи на телевидении Узбекистана, которые играют важную роль в развитии человека, и в какой степени задачи этих передач в сознании и психике людей. При этом проанализировано влияние духовно-просветительских телепередач, их тематика, журналистское мастерство и подход.

ABSTRACT

In this article, the programs on the television of Uzbekistan, which play an important role in the development of a person, and the extent to which these programs perform their tasks in the mind and psyche of people are scientifically and practically researched. At the same time, the impact of spiritual-educational TV

programs covered, the topic, journalistic skills and approach were analyzed practically.

Jurnalistika yuksalsa, millat ham taraqqiyotga yuz buradi. Zero, jurnalistika o'zida bir necha san'at va madaniyat ko'rinishlarini umumlashtirgan, bag'rida jo qilganligi bilan tahsinga sazovordir va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini yodda saqlashimiz kerak. Buyuk shoirimiz, jadid adabiyotining yorqin namoyondasi Cho'lpon aytganidek, adabiyot, yashasa, millat yashaydi. Madaniyat, ma'rifat rivojlanadi, yuksaladi. Bu fikrlarni to'ldirgan holda aytishim mumkinki, jurnalistika yashasa ham millat yashaydi, muammolar o'z yechimini topadi. Jurnalistlari botir, madaniyati yuksak bo'lgan xalq – hech qachon muammolar girdobida qolmaydi.

Bugun sir emaski, jadallashuv urf bo'lgan hayotda jurnalistika oldinga qarab chiqib bormoqda. Bu esa o'z navbatida so'zga bo'lgan e'tibor va mas'uliyatni ortishiga, ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarining kengayishiga xizmat qiladi.[7] Oynai jahon orqali namoyish etilayotgan ko'rsatuvlarning ta'sir kuchi shu qadar yuksakki – u omma ongiga sezilarli kirib boradi. Mana nima uchun ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlarga ehtiyoj seziladi. Chunki ularda ma'naviy taqdirimiz bor, shov-shuv xabarlardan bezillab qolgan odamlarga taskin bor. Filologiya fanlari doktori, ustoz Beruniy Alimov aytganlaridek: “Insoniyat “globallashuv” deb atalgan yangicha hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan va bu aloqalar jadal sur'atlarda kengayib, chuqurlashib borayotgan yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Buning natijasida “globallashuv” so'zi iqtisodiygina emas, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa qariyb barcha sohalaridagi umuminsoniy jarayonlarni qamrab oluvchi tushunchaga aylanib ulgurdi”.[3] Chindan ham bu tushunchani bugun barcha jabhalarda qo'llash urf bo'ldi. Sababi, yuqorida aytganimizdek hayot shiddat bilan harakatda ketmoqda, hammaning qandaydir o'z haqiqati, o'z yo'li bor.

Televizion ko'rsatuvlar mavzusiga to'xtalar ekanmiz, bugungi tomashabin avvalgidek sadoqatli emas, deya ayta olamiz. Avvallari uylarda birgina televizor va

sanoqli telekanallar bor edi, hozir esa tanlov masalasi ancha yuqorilagan. Yana bir tomoni, televizion ko'rsatuvlar o'rnini qandaydir videolar "vayn"lar va yoshlar tilida aytganda "prank"lar egallab ulgurdi. Bu boshlanishi xolos, keyin nima bo'ladi, O'ziga ayon.

Ijtimoiy tarmoqlarda go'yo "ma'naviyat"ni ko'rsatish maqsadida ulashilayotgan videolarni ko'rib qotib qolyapmiz. Tan olish kerak, hamma videolarni ham birdek yomon deb ayta olmayman, ammo kuni kecha guvohi bo'lganimiz bir videoda Mohlaroyim obrazi va ushbu obrazga qilingan "ma'naviy tahdid" ko'pchilik ziyolilarning e'tiborini tortdi va hatto ayrim ziyolilarning raddiya bilan chiqishlariga ham sabab bo'ldi. Jumladan, shoir, Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Botirjon Ergashevning quyidagi fikrlari "Facebook" ijtimoiy tarmog'ida katta muhokamalarga sabab bo'ldi va izohlarda deyarli hamma u bilan hamfikir ekanliklarini bildirishgan. "Bugun tomiringda qon oqib turibdi, tiriksan, tavba qilishga imkonlaring bor, tavba qil, ertangga kafolat yo'q. Mohlaroy, deb nomlab olgan uyatsizning uyida ishtonlaring qolib ketganini aytib, kimni kuldirmoqchisanlar? Xalqning yuzidagi hayoni sidirishni bas qilinglar, oqibati yomon bo'ladi". Mana, ma'naviyat masalasi nima uchun dolzarb. Mana, ziyolilar nima uchun oyoqqa turishyapti!

Aslida, ma'naviyat nima degani? "Ma'naviyat" (معنويات) so'zi arab tilidan olingan bo'lib, odob-axloq majmui degan ma'noni bildiradi. Mustaqillikkacha bo'lgan o'zbekcha lug'atlarda bu so'z yo'q. "Ma'naviy" so'zi ishlatilgan, lekin ot sifatida "ma'naviyat" so'zi 1981 yili chiqqan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham mavjud emas. 2006 yili chiqqan yangi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "ma'naviy" so'zi izohida "ma'noviy, aqliy, axloqiy, MAVHUM" ta'rifi ham keltirilgan.[4]

"Ma'naviyat" so'ziga katta ehtiyoj Mustaqillikdan so'ng sezildi. G'oyaviy jihatdan ham nochor bo'lgan xalqning ehtiyojini qondirish juda zarur edi. Ma'naviyat bu borada juda yaxshi ma'naviy ozuqa edi. O'z tarixi, ilm-fani, qadriyatlariga tashna xalq uchun Ma'naviyat g'oyasining singdirilishi uning uyg'onishida yaxshi natijalarga olib kelgan.

Ma'naviyat — oliy axloqiy tushunchalar majmui. Lekin har qanday vaziyatda, har qaysi holatda ham ma'naviyatni ustun qo'yish, ma'naviyatsizlikni sabab qilib ko'rsatish yaramaydi. Har kuni asal yeyaversangiz, bir haftadan so'ng me'dangizga tegadi. Masalan, bolaning xato (jinoyat) qilishiga har doim ham uning va oilasining ma'naviyatsizligi sabab bo'lavermaydi. Ma'naviyat uchun avval sharoit yaratiladi. So'ng talab qilinadi.

Jurnalist, ziyouz.uz sayti bosh muharriri Davronbek Tojjaliyevning ma'naviyat haqida aytgan ushbu gaplarini misol tariqasida keltirmoqchi edim:

“Ma'naviyat — yaxshi tushuncha. Lekin uning targ'ibotchilari ma'naviy yetuk bo'lmasa, hayotda, amalda teskari harakat qilsa — undan ortiq yomonlik yo'q. [5] Asalning shirinligini doim ta'kidlash shart emas. Zero, uni hamma biladi. Tomoqni zaxalamaydigan qilib, vaqtida, kerak paytida yetkazilsa, bas”. [9]

Matbuot jurnalistikasi maktabining asoschilaridan biri, mohir jurnalist, publitsistik maqolalari bilan tanilgan, maqolalari haligacha qo'lma-qo'l o'qiladigan yozuvchi Ahmadjon Meliboyev ham mavzu doirasida jim tura olmadilar:

“Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, muammolarning kelib chiqishi umumma'naviy tarbiyada yuzaga kelgan bo'shliq, beparvolik bilan bog'liq. Ma'naviyat oqsasa ilmiy taraqqiyot to'g'ri yo'ldan chalg'ishi mumkin – bugun dunyoning favqulodda iste'dodli olimlari, tug'ma qobiliyat egalari sog'liqni saqlash, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, inson maishiy turmushini yaxshilash muammolari bilan emas, zamonaviy qurol-yarog'lar yaratish bilan shug'ullanmoqdalar.

Taassufki, inson aql-zakovatining yuksak samarasi bo'lgan internet omborlari behayolik, zo'ravonlik, bosqinchi va talonchilik, zino va boshqa illatlar bilan to'lib-toshgan. Matbuot xabarlariga qaraganda, bu tizimda yoshlarni o'z-o'zini, boshqa gunohsiz odamlarni o'ldirishga o'rgatuvchi son-sanoqsiz saytlar bor ekan. Ma'naviyat bir chetga surib qo'yilsa, yangi boylar xayr-sahovat, muruvvat yo'lini qo'yib, hoyu havasga, tuturiqsiz xarajatlarga beriladilar, bema'ni urf-odatlarini o'ylab topadilar va shu ishlari bilan nom qozonadilar.

Dunyo dunyo bo‘lib, pul, boylik yuzaga kelganidan beri hech bir boyvachcha “Bo‘ldi, mol-mulkim oshib-toshib ketdi, boshqalarga ham qolsin”, degan emas. Ma’naviyatli kishi, agar uning atigi bir kunlik rizqidan boshqa hech vaqosi bo‘lmasa ham, shukr qiladi, shu rizqni og‘ziga solayotib, boshqalar to‘g‘risida ham o‘ylaydi.

Bundan anglashiladigan xulosa shuki, endilikda dunyoni kuch, boylik, qurol-yarog‘, do‘q-po‘pisa emas, imon-e‘tiqod, fahm-farosat, aql-idrok, ta’lim-tarbiya bilan mujassamlashgan ma’naviyat qutqaradi”. [6]

Bugun dunyoda iqtisodiy sohada – o‘zga mintaqalardagi tabiiy boyliklar ustidan nazoratni qo‘lga kiritish, mafkuraviy sohada — turli xalqlarning asrlar davomida shakllangan turmush tarzini o‘z manfaatlari yo‘lida “isloh” qilish, yoshlar ongi va qalbini egallash, ularni to‘g‘ri yo‘llardan chalg‘itish kabi nosog‘lom xatti-harakatlar tobora kuchayib bormoqda.

Bunday harakatlar bir qarashda ko‘zga uncha tashlanmaydigan, deyarli beozor bo‘lib ko‘rinadigan va hatto qiziqarli, jozibali shakllarda olib boriladi. Moddiy manfaatdorlik va’da qilinadi.

Hayotiy tajribasi yetarli bo‘lmagan yoshlar bunday “joziba”ga tez mahliyo bo‘ladilar va o‘zlari bilmagan holda kimlarningdir to‘riga ilinib qoladilar. Yoshlarni bunday halokatdan asrashda badiiy adabiyot, ma’naviyat va ma’rifat targ‘iboti xaloskor kuchga aylanadi.

Biz ajdodlarimizni tanish haqida bong urayotgan bir paytda, ayrimlar ularni bilib-bilmay mazax qilsa. Shunday holatlarda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televideniye tizinni mahkam qo‘liga olishi kerak. Ma’naviyat, ma’rifatni targ‘ib qiluvchi, madaniyatga chaqiruvchi ko‘rsatuvlarni ko‘proq efirga uzatishi, imkon qadar ma’rifatga oshno bo‘lishi uchun harakat qilmog‘i darkor. Jumladan, ustoz, adabiyotshunos, olim Bahodir Karimov o‘zbek adabiyotining, o‘zbek ma’rifatining mavqeyi haqida fikr yuritar ekan, shunday deydi: “Ayni zamonda adabiyotshunoslik ilmi Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini, «O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon»dek go‘zal romanlariga munosabat tarixini qayta idrok etish, qayta baholash, qayta talqin qilish jarayoniga qadam qo‘ydi:

*Azaliy haq gapni yashirmoq nechun,
Zavol yo‘q eng asl iste‘dod uchun.
Agarda koinot tegirmon bo‘lib,
Olamni yanchsa ham, qolgay u butun”.[2]*

Eng katta ziyoli qatlamni ommaga ko‘rsatayotgan “Madaniyat va ma‘rifat” telekanalini olaylik. Ushbu telekanal dasturlarida ma‘naviyatga oid juda ko‘plab ko‘rsatuvlar namoyish etiladi. “Fikrlayotgan odam”, “Qaqnus”, “Asliyat sadolari”, “Fonoteka”, “Debyut”, “Unutilmas siymolar”, “Umr daftari” kabi ko‘rsatuvlarida hayot haqida, insoniylik, umuman ma‘naviyat-ma‘rifatga oid barcha jabhalar haqida so‘z boradi. Ayniqsa, “Fikrlayotgan odam” ko‘rsatuvi muallif, yozuvchi Nazar Eshonqul tomonidan “boshqariladi”. Yarim soat davomida bir mavzu ochib beriladi. Masalan, Hazrat Navoiy ijodiga, shaxsiga bag‘ishlangan ko‘rsatuvda Alisher Navoiyning nafaqat ijodi, balki shaxsiga oid hech qayerda uchramagan ma‘lumotlarni olishingiz mumkin. Shu bilan birga, Navoiyning g‘azallaridan misollar keltirib, shoir aslida nima demoqchi ekanligini ochiqchasiga ochiqlab ketganlar. Ushbu ko‘rsatuvdan so‘ng Navoiy shaxsiga, ijodiga yanada qiziqishingiz, hurmatingiz yuksaladi.

Yilning yana bir olovli loyihalaridan bo‘lmish “Qaqnus”da biz faqat she‘r tinglamaymiz, balki so‘z zalvorini, so‘z qudratini tuyamiz. Jurnalist, shoir Shuhrat Orifning mualliflikdagi ushbu ko‘rsatuvi haqiqatdanam nomiga monand. Avvalo, siz tinglaysiz, so‘zlarni tahlil qila boshlarkansiz yonishni, kuyib, alanga haroratini his qilishni boshlaysiz. So‘ngra jimlik cho‘kadi-yu, bari yana qaytadan boshlanadi. Yana yangi she‘r, ijodiy suhbat... Barchasida ruh bor, yuqorilik bor, onga ma‘naviy yurish bor... Bu kabi ko‘rsatuvlarni ko‘proq tomosha qilish kerak, chunki har bir ko‘rsatuvni tomosha qilish asnosida siz bitta kitob o‘qiganchilik ozuqa olasiz.

Men ijtimoiy tarmoqlardan yo boshqa vositalardan uzulib, televizor ko‘ring, deyishdan yiroqman. Shunchaki, vaqtingizni zoe ketqizmang, hali ko‘rishimiz uchun arziydigan ko‘rsatuvlar ko‘p, ular ma‘rifat, bir kitob bera oladigan bilim va

energiyani bera oladi, demoqchiman xolos. Zero, ma'naviyat va ma'rifat masalasi – har qanday inson va har bir millat uchun zarurdir.

Bugungi dunyoning o'ziga xos xususiyati shundaki, rivojlangan, iqtisodi baquvvat davlatlar ham, bu yo'lga endi-endi kirib kelayotgan mamlakatlar ham o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda, o'zining shaxsiy manfaatidan kelib chiqadi. Yirik davlatlar iqtisodi endi-endi oyoqqa turayotgan mamlakatlarga ma'lum ma'noda iqtisodiy, siyosiy va boshqa bosim ham o'tkazadi. Iqtisodiy tazyiqni sezish oson, ammo mafkuraviy tazyiq ko'rinmas bir ofat yanglig' xalq, millat hayotiga pistirib kirib keladi va ildiz otadi. Iqtisodiy tanglikni yengish mumkin, ammo ma'naviy tanazzul oqibatlarini tugatish g'oyat murakkab vazifa.

Demak, milliy tiklanishdan milliy yuksalish yo'lga o'tayotgan O'zbekiston uchun ma'naviy tarbiya bugun har qachongidan ko'ra ham ahamiyatlidir. Davlatimiz rahbarining qarorida bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan birlamchi muhim vazifalar belgilab berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nurmatov M.M. 2021. The world of the future in modern sciencye fiction: the specifics of the artistic model. Problems of broadcasting, (1), 78-85 (in English) – 24 б
2. Раҳматуллаев Ш.Тил қурилишининг асосий бирликлари. - Тошкент, 2002. – 15 б
3. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/bahodir-karim-abdulla-qodiriy-yangicha-talqin.html>
4. <https://beruniyalimov.uz/archives/category>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/08/27/manaviyat/>
6. <https://oyina.uz/uz/article/120>
7. <https://yuz.uz/uz/news/manaviyat--milliy-yuksalish-poydevori>
8. <https://yuz.uz/uz/news/manaviy-yangilanish--bunyodkor-xalqimiz-qudrati-ozaro-birdamlik-ruhidagi-ezgu-intilishlarida--namoyon-bolmoqda>
9. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/matbuotning-yuki-engil-emas-birinchi-maqola>